

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

XAKIMOVA NIGINA OLIMJON QIZI

O‘ZBEK MILLIY QO‘G‘IRCHOQ TEATRI:
AN‘ANALARI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

17.00.01 – Teatr san’ati

SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation

Xakimova Nigina Olimjon qizi

O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatri:

an‘analari va zamonaviy tendensiyalari 3

Хакимова Нигина Олимжон кизи

Узбекский Национальный театр кукол:

традиции и современные тенденции 19

Khakimova Nigina Olimjon kizi

The National Puppet Theater of Uzbekistan:

traditions and modern trends 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 41

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

XAKIMOVA NIGINA OLIMJON QIZI

O‘ZBEK MILLIY QO‘G‘IRCHOQ TEATRI:
AN’ANALARI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

17.00.01 – Teatr san’ati

SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/San269 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (dsmi.uz) hamda "Ziynet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tulyaxodjayeva Muxabbat Turabovna
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qodirova Sarvinoz Muhsinovna
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Qobilova Feruza Nasrullayevna
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.11/2025.27.12.San.02.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 21-avgust soat 10.00dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871)230-28-15; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (54-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-58; faks: (+99871) 230-28-15).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 27-iyul kuni tarqatildi.

(2026-yil 27-iyuldagi 21-raqamli reyestr bayonnomasi).


B.A.Shodiyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
san'atshunoslik fanlari doktori, dotsent
J.A.Mamatqosimov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), professor
A.A.Umarov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv jarayonlari, madaniy integratsiya hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida milliy madaniyatlarning o'ziga xosligini saqlash va ularni zamonaviy talqin asosida rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Jamiyatning badiiy tafakkuri va estetik qadriyatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutuvchi teatr san'ati, xususan qo'g'irchoq teatri alohidaga e'tibor qaratilmoqda. Shaxs tarbiyasida qo'g'irchoq teatrining ma'naviy, ma'rifiy va estetik ahamiyati hamda kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy rejissyorlik izlanishlari asosida sahnalashtirilgan spektakllar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon san'atshunosligida qo'g'irchoq teatri zamonaviy teatr jarayonlarining muhim tarkibiy qismi sifatida keng qamrovli ilmiy tadqiq etilmoqda. An'anaviy tomosha san'ati shakli, jonsiz predmetni badiiy obraz darajasiga ko'tarish imkonini beruvchi estetik hodisa, shuningdek ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan o'zaro aloqada rivojlanayotgan kommunikativ platforma sifatida taqdid qilinmoqda. Qo'g'irchoq teatri bugungi kunda sahnaviy sintez, postdramatik teatr izlanishlari, milliy identitetni ifodalash hamda tomoshabin auditoriyasining qabul qilish jarayonlari xalqaro madaniy almashinuv kontekstida tizimli ravishda o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda teatr san'atini yanada rivojlantirish, spektakllarning g'oya, mazmun va badiiy shakl jihatidan boyitish, ularni mavjud an'analar asosida takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. "Teatrlar faoliyatini modernizatsiya qilish, yosh avlodning estetik didini shakllantirish, milliy qadriyatlarni sahnaviy talqin orqali targ'ib etish hamda teatr san'atining jamiyat ma'naviy hayotidagi rolini oshirish"¹ muhim vazifalar sifatida belgilanmoqda. O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatrining vujudga kelish tarixi, shakllanish jarayoni, rivojlanish bosqichlari, repertuar siyosati, zamonaviy qo'g'irchoq teatrining yangi shakllari va uslublari hamda zamonaviy tendensiyalarini kompleks ilmiy tahlil qilish ustuvorlik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida", 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasi milliy madaniyatini yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-399-son "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-399-son "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2024-y., 07/24/399/1000-son.

boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dissertatsiya mavzusini tadqiq etishda mahalliy nashrlar bilan bir qatorda xorijiy ilmiy manbalardan ham foydalanildi. Qo'g'irchoq teatri tarixi, nazariyasi, dramaturgiyasi bo'yicha jahon va rus san'atshunoslari, amaliyotchi-nazariyotchilari, adabiyotshunos, madaniyatshunos, faylasuf va estetik olimlari tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Yevropa qo'g'irchoq teatri san'atining shakllanish va rivojlanish bosqichlari haqida G.Bati, P.Ferrini, E.Kreg, Sh.Manen, E.Mendron, X.Yurkovskiy² kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Qo'g'irchoq teatri nazariyasi bo'yicha MDH tadqiqotchilarining asarlari yetakchi o'rinda turadi. Bu borada N.Aleksandrova, Y.Demmeni, A.Fedotov, Y.Kolmanovskiy, M.Korolyov, Y.Kozyurenko, A.Minakova, S.Obrazsov, O.Polyakova, N.Simonovich-Yefimova, N.Smirnova, A.Vasilkova³ va boshqa tadqiqotchilarni keltirish mumkin.

An'anaviy qo'g'irchoq teatri bo'yicha B.Goldovskiy, M.Dmitrievskaya, I.Solomonik, Y.Romanovskiy, N.Nurjanov⁴, o'zbek xalq go'g'irchoq teatri to'g'risida

² Бати Г. Завещание // Театр кукол зарубежных стран. – Москва: Искусство, 1959. – С.144-156.; Феррини П. История марионетки. – Москва: [б.и.], 1990. – С.213. Крэг Э. Актер и сверхмарионетка // Крэг Г. Воспоминания. Статьи. Письма. – Москва: Искусство, 1988. – С. 212-233.; Маньен Ш. История марионеток в Европе / Литерат. пер. с франц., Б.Голдовского. – Москва: Канон, 2017. – С.288.; Мендрон Э. Марионетки и гиньоли. Пер. Е.И. Лосевой, Маш, копия. Архив Музея ГАЦТК, ед хр. И-37. – С.136.; Юрковский Х. Из истории взглядов на театр кукол / Что же такое театр кукол? В поисках жанра: сб. статей. – Москва: ВТО, 1980. – С.44-76.

³ Александрова Н. О музыке в театре кукол // Что же такое театр кукол. – Москва: ВТО, 1980. – С.135-146.; Деммени Е. Игра живых актёров в театре кукол // Кукольные театры Лен ТЮЗ: сборник статей/Под ред. Н. Верховского. – Москва: ОГИЗ. 1934. – С.9-14.; Федотов А. Техника театра кукол. – Москва: Искусство, 1953. – С.210.; Колмановский Е. Театр кукол, день сегодняшний: из записок критика. – Москва: Искусство, 1977. – С.118-120.; Королев М. Искусство театра кукол. – Москва: Искусство, 1973. – С.112.; Козюренко Ю. Звуковое оформление спектакля. – Москва: Сов. Россия, 1972. – С.110.; Минакова А. Детализация художественного оформления спектакля театра анимации // В мире науки и искусства: вопросы филологии искусствоведения и культурологии. – 2014. – № 41. – С.146-151.; Образцов С. Кукольные театры разных стран // Театр. – 1959. – № 3. – С.172-176.; Образцов С. Режиссер условного театра. – Москва: Упр. по охране авт. прав, 1941. – С.36.; Образцов С. Что же это такое - кукла? // Что же такое театр кукол? В поисках жанра Сб. статей. – Москва: ВТО, 1980. – С.7-22; Полякова О. Решение сценического пространства в спектаклях Государственного академического Центрального театра кукол: автореф. дис. канд. искусствовед. – Москва:1988. – С.21.; Симонович-Ефимова Н. Записки художника. – Москва: Советский художник, 1982. – С.422.; Смирнова Н. Искусство играющих кукол. Смена театральных систем. – Москва: Искусство, 1983. – С.270.; Василькова А. Душа и тело куклы. – Москва: АГРАФ, 2003. – С.224.

⁴ Голдовский Б. История драматургии театра кукол: монография. – Москва: Галерея Марины Чижовой, 2007. – С.300.; Голдовский Б. Историческое развитие и сценическая жизнь русской драматургии театра кукол XVIII-XX вв. звтореф. дис. док. искусствовед. – Санкт-Петербург: 2007. – С.21.; Голдовский Б. Куклы: Энциклопедия. – Москва: Время, 2004. – С.469.; Голдовский Б., Смелянская С. Театр кукол Украины: страницы истории. – Сан-Франциско: 1998. – С.275.; Соломоник И. Традиционный театр Востока. Основные виды театра плоских изображений. – Москва: Наука, 1992. – С.312.; Соломоник И. Человек на сцене традиционного и нового театра кукол // Международный симпозиум историков и теоретиков театра кукол. – Москва: 1984. – С.54-62.; Романовский Е. Искусство театра кукол в контексте национальной культуры: автореф. дисканд. искусствоведения – Саранск: 2008. – С.24.; Романовский Е. Искусство театра кукол в контексте национальной культуры. Монография. – Саранск: 2010. – С.143.; Романовский Е. Национальное как эстетическое качество театра кукол // Журнал "Регионология" – № 2 2008. – С.347-349.; Нуржанов Н. Традиционный театр таджиков в двух томах. Т.2. – Душанбе: Мир Путешествий, 2002. – С.372.

L.Kostenko, N.Ostroumov, N.Likoshin, A.Samoylovich, V.Bartold, M.Gavrilov, L.Perepelitsina, M.Rahmonov, M.Qodirov kabi olimlar⁵ tadqiqotlar olib borgan. Zamonaviy o'zbek qo'g'irchoq teatri san'atiga oid M.Ashurova, V.Yusupova, Sh.Hayitbayev, I.Turdiyeva, M.Ubaydullayeva, F.Qobilova, B.Mamatqulov, M.Umarxodjayeva, M.Turobovalarning⁶ qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasi, rejissurasi, qo'g'irchoq boshqarish texnikasiga oid o'quv qo'llanmalari va tadqiqotlarini keltirish mumkin.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, "Yangi O'zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish strategiyasi: an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy talablar uyg'unligida madaniyat va san'at sohasi mutaxassislarini tayyorlashning nazariy-konseptual asoslari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatrining tarixi, ma'muriy-ijodiy shakllanish jarayonlari, repertuar siyosati, rejissyorlik va aktyorlik ijrosidagi tendensiyalar, milliy va xorijiy dramaturgiyadagi janr va mavzu xilma-xilligi masalalarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qo'g'irchoq teatri san'atining nazariy asoslarini aniqlash hamda rivojlanish bosqichlarini davrlashtirish;

⁵ Костенко Л. Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 г. – Санкт-Петербург: Изд-во. Н.И.Бортнеского, 1871. – С.109.; Остроумов Н. Этнографические материалы. – Ташкент: Изд. дом, 1896. – С.58.; Лыкошин Н. Народные развлечения у сартов // Газ. Русский Туркестан, 1990, № 10,15,17.; Самойлович А. "Туркестанский устав" рисоля артистов. Этнографический отдел Государственного Русского Музея. – Москва: 1927. – С.53-57.; Бартольд В. История культурной жизни Туркестана. – Москва: Изд.АН СССР, 1927. – С.174.; Гаврилов М. Кукольный театр в Узбекистане. – Ташкент: Средазкнига, 1928. – С.60.; Перепелицына Л. Узбекский народный кукольный театр – Ташкент: Государственное издательство художественной литературы Уз ССР, 1959. – С.92.; Rahmonov M. O'zbek teatri. Qadimiy zamonlardan XVIII asr avvaliga qadar. – Toshkent: Fan, 1968. – B.417.; Qodirov M. Xalq qo'g'irchoq teatri – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. – B.237.; Қодиров М. Узбекский традиционный театр кукол. – Ташкент: Издательство литература и искусства им Г.Гуляма, 1979. – С.146.; Qodirov M.O'zbek xalq tomosha san'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1981. – B.223.; Qodirov M. An'anaviy teatr dramaturgiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – B.286.; Qodirov M. "O'zbek an'anaviy teatri" – Toshkent: Milliy kutubxona nashr, 2010. – B.315.; Qodirov M., Qodirova S. Qo'g'irchoq teatri tarixi. – Toshkent: Talqin, 2006. – B.204.; Qodirov M. Temuriylar davri tomosha san'atiari. – Toshkent: San'at, 2007. – B.216.; Qodirov M. Xalq qo'g'irchoq teatri. – Toshkent: San'at, 2022. – B.204.

⁶ Ашурова М.Актёр создатель кукольного сценического образа. – Ташкент: Ташкентский государственный институт искусств имени Маннона Уйгура, 1995. – С.15.; Юсупова В. Кукловождение работа с перчаточной куклой. – Ташкент: Инновация-зиё, 2020. – С.150.; Hayitbayev Sh. Qo'g'irchoq teatri rejissurasi. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat instituti bosmaxonasi, 2007. – B.59.; Turdiyeva I. Qo'g'irchoq boshqarish asoslari. O'quv uslubiy qo'llanma – Toshkent: Lesson Press, 2015 – С.69.; Ubaydullayeva M. O'zbek qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasining o'ziga xos xususiyatlari va sahna talqini muammolari San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD ilmiy dar. olish uchun diss. – Toshkent: O'zDSMI axborot-ressurs markazi, 2023. – B.144.; Qobilova F. Mustaqillik davrida O'zbekiston qo'g'irchoq teatrlari ssenografiyasi. San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD ilmiy dar. olish uchun diss. – Toshkent: Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti axborot-ressurs markazi, 2023. – B.137.; Mamatqulov B. Teatr qo'g'irchoqlarini yasash texnologiyasining nazariy va amaliy asoslari. San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD ilmiy dar. olish uchun diss. – Toshkent: O'zDSMI axborot-ressurs markazi, 2025. – B.121.; Umarxodjayeva M. O'zbekiston qo'g'irchoq san'atining shakllanish va rivojlanish bosqichiari (XX asming 30-yillari - XXI asr boshlari). San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD ilmiy dar. olish uchun diss. – Toshkent: Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti axborot-ressurs markazi, 2025. – B.137.; Turobova M. Zamonaviy o'zbek qo'g'irchoq teatri rejissurasi. San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD ilmiy dar. olish uchun diss. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti axborot-ressurs markazi, 2025. – B.144.

teatrning 85 yillik repertuarini qaytadan yig'ish va uni janrlar hamda tomoshabin yosh chegarasi kesimida tasniflash;

zamonaviy rejissyorlik izlanishlarini sahnalashtirilgan spektakllar timsolida ochib berish;

zamonaviy qo'g'irchoq teatrining yangi shakllari va uslublarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatrining tashkiliy-ijodiy faoliyati belgilandi.

Tadqiqotning predmetini teatrning shakllanish va rivojlanish bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etgan spektakllar tahlili tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda zamonaviy san'atshunoslik ilmining tipologik, tarixiy-xronologik, tasnifiy, tahliliy, faktologik, solishtirma-qiyosiy, kompleks yondashuv kabi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek professional qo'g'irchoq teatrining rivojlanish jarayoni ilk bor yaxlit tizim sifatida davrlashtirilib, uning vujudga kelishi (1939 – 1959-yillar), shakllanishi va rivojlanishi (1960 – 1990-yillar), mustaqillik davridagi taraqqiyoti (1991 – 2016-yillar) hamda zamonaviy taraqqiyoti (2017-yildan bugunga qadar) bosqichlarining o'ziga xos badiiy-estetik va tashkiliy qonuniyatlari aniqlangan;

O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatrining 85 yillik repertuari ilk bor to'liq tiklanib, spektakllar janri, tomoshabin auditoriyasi va g'oyaviy-tematik yo'nalishlari bo'yicha tasniflangan hamda katta yoshdagi tomoshabinlar uchun yaratilgan "Soya", "Bahrom va Dilorom", "Hamlet" spektakllarining repertuar siyosatida alohida badiiy-estetik o'ringa egaligi asoslangan;

mustaqillik davrida tarixiy va afsonaviy qahramonlarga bag'ishlangan qo'g'irchoq spektakllarida shartlilik va ramziylikka asoslangan ssenografik hamda rejissyorlik echimlari jahon teatr tendensiyalarining milliy an'analar bilan uyg'unlashuvi sababli ustuvor badiiy tamoyilga aylangani, tarixiy shaxslar obrazlarini sahnalashtirish esa milliy qo'g'irchoq teatri repertuarining muhim rivojlanish tendensiyasi sifatida shakllangani "Yurt-tumori To'maris", "Shiroq" va "Oh, bu o'sha Xo'ja Nasriddin" spektakllariga ko'ra asoslangan;

zamonaviy va an'anaviy qo'g'irchoq teatri o'rtasidagi badiiy-estetik vorisiylikning an'anaviylik, milliylik, ramziylik va sahnaviy shartlilik kabi asosiy belgilari hamda ularni farqlovchi multimediaviy ifoda, zamonaviy sahnaviy texnologiyalar va raqamli sahna vositalariga asoslangan innovatsion yondashuvlar tizimlashtirilib, ularning milliy qo'g'irchoq teatri rivojiga ta'siri ilmiy jihatdan isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri tarixi va shakllanish bosqichlarini o'rganish natijasida teatrning 85 yillik repertuari qayta yig'ib chiqildi;

O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatrining ijodiy faoliyati va so'nggi 25 yil ichida yaratilgan spektakllari keng tahlil qilingan bo'lib, qo'g'irchoq teatri san'ati yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma hamda rejissyor, dramaturg va qo'g'irchoq teatri aktyorlari uchun nazariy qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lgan ilmiy-nazariy xulosalar ishlab chiqilgan;

ommaviy axborot vositalari va televideniye ko'rsatuvlarida tadqiqot natijalari muhokama qilingan, qo'g'irchoq teatrida yaratilgan yangi zamonaviy yo'nalishdagi spektakllar O'zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi "Madaniyat va ma'rifat" va "O'zbekiston tarixi" telekanallarida yoritilgan bo'lib, spektakllarning tarbiyaviy ahamiyati, g'oyaviy jihatlari tadqiqotchi tomonidan auditoriya uchun asoslab berilgan;

O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatrining adabiy-badiiy bo'limida tashkil etilgan pyesalar arxivini boyitishda va ayrim pyesalarni qayta tiklashda tadqiqot ishidan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tanlangan mavzuning aniqligi, mavzuni yoritishda mahalliy va xorijiy tadqiqotlar, ilmiy adabiyotlarga asoslanganligi, spektakllar tahlilida mualliflarning qo'lyozmalari va teatr arxivlaridan foydalanganligi, shuningdek, saralangan spektakllar amaliyotda qo'llanilayotgan tadqiqot usullaridan foydalanilgan holda tahlil etilganligi, rejissyorlar, rassom va aktyorlar bilan ijodiy suhbatlar o'tkazilganligi, spektakllar ko'riklari va videotasmalar namunalari yig'ilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, mazkur ishdan madaniyat va san'atga ixtisoslashgan o'quv yurtlari talabalari uchun darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda, olingan nazariy xulosalardan san'atshunoslik, xususan teatrshunoslikda ilmiy-nazariy konsepsiya yaratishda qo'shimcha manba bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, unda ilgari surilgan nazariy fikrlarni sahna jarayonlariga tatbiq etsa bo'ladi, shuningdek, spektakllarni badiiy-g'oyaviy jihatdan takomillashtirishga, shu bilan birga milliy qo'g'irchoq teatri san'ati, rejissurasi, dramaturgiyasi hamda sahna amaliyotida mavjud qarashlarni qaytadan ko'rib chiqish imkonini berishi bilan ifodalanib, tadqiqot natijalaridan rejissyorlik topilmalari va ijodiy izlanishlar ko'lamini kengaytirish, yangi badiiy-estetik yondashuvlarni shakllantirish, qo'g'irchoq teatri repertuar siyosatini boyitish hamda zamonaviy sahna amaliyotini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri an'analari va zamonaviy tendensiyalari" mavzusidagi tadqiqot ishi bo'yicha berilgan takliflar asosida:

o'zbek professional qo'g'irchoq teatrining rivojlanish jarayoni ilk bor yaxlit tizim sifatida davrlashtirilib, uning vujudga kelishi (1939 – 1959-yillar), shakllanishi va rivojlanishi (1960 – 1990-yillar), mustaqillik davridagi taraqqiyoti (1991 – 2016-yillar) hamda zamonaviy taraqqiyoti (2017-yildan bugunga qadar) bosqichlarining o'ziga xos badiiy-estetik va tashkiliy qonuniyatlari aniqlangan xulosalardan O'zbekiston teatr arboblari uyushmasining yillik hisoboti kengashida qo'g'irchoq teatrlari ijodiy faoliyatini baholashda foydalanilgan (O'zbekiston teatr arboblari uyushmasining 2026-yil 1-apreldagi 01-01-36-sonli dalolatnomasi). Natijada, qo'g'irchoq teatrlaridagi repertuar siyosati bilan bog'liq bo'lgan yutuq va muammolarni aniqlash orqali kelgusidagi kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ishlab chiqishga xizmat qilgan;

O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatrining 85 yillik repertuari ilk bor to'liq tiklanib, spektakllar janri, tomoshabin auditoriyasi va g'oyaviy-tematik yo'nalishlari bo'yicha tasniflangan hamda katta yoshdagi tomoshabinlar uchun yaratilgan "Soya", "Bahrom va Dilorom", "Hamlet" spektakllarining repertuar siyosatida alohida badiiy-estetik o'ringa

egalligi asoslangan taklif va tavsiyalardan spektakllarni qabul qilish jarayonlarida Madaniyat vazirligi huzuridagi Teatrlar faoliyati bo'yicha Badiiy Kengash muhokamalarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025-yil 17-iyundagi 02-11-17-2085-son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatrida kechki seanslar tashkil etilgan va spektakllar namoyishi belgilangan; mustaqillik davrida tarixiy va afsonaviy qahramonlarga bag'ishlangan qo'g'irchoq spektakllarida shartlilik va ramziylikka asoslangan ssenografik hamda rejissyorlik echimlari jahon teatr tendensiyalarining milliy an'analar bilan uyg'unlashuvi sababli ustuvor badiiy tamoyilga aylangani, tarixiy shaxslar obrazlarini sahnalashtirish esa milliy qo'g'irchoq teatri repertuarining muhim rivojlanish tendensiyasi sifatida shakllangani "Yurt-tumori To'maris", "Shiroq" va "Oh, bu o'sha Xo'ja Nasriddin" spektakllariga ko'ra asoslangan xulosalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Madaniyat va ma'rifat" telekanalida efirga uzatilgan "Bugun" madaniy-ma'rifiy dasturining O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri haqidagi lavha va "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatrining tarixi va bugungi kundagi ijodiy faoliyati to'g'risida tayyorlangan "Fan va tarix" ko'rsatuvlarining ssenariylarini tayyorlashda va suratga olish jarayonida foydalanilgan. (O'zMTRK 2025-yil 18-iyundagi 01-19/450-son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatrining bugungi kundagi repertuari, ijodiy faoliyati haqida tasavvur hosil qilishga, teatrning mavjud spektakllarini tomoshabinlarga tanitishga (reklama) xizmat qilgan;

zamonaviy va an'anaviy qo'g'irchoq teatri o'rtasidagi badiiy-estetik vorisiylikning an'anaviylik, milliylik, ramziylik va sahnaviy shartlilik kabi asosiy belgilari hamda ularni farqlovchi multimedaviy ifoda, zamonaviy sahnaviy texnologiyalar va raqamli sahna vositalariga asoslangan innovatsion yondashuvlar tizimlashtirilib, ularning milliy qo'g'irchoq teatri rivojiga ta'siri ilmiy jihatdan isbotlangan xulosa va takliflarda O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatrining adabiy-badiiy bo'limidagi pesalar arxivi boyitilgan va ayrim pesalar qayta tiklangan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025-yil 17-iyundagi 02-11-17-2085-son ma'lumotnomasi). Natijada, teatrning arxiv fondi dissertatsiya asosida tanlab olingan ayrim pesalarning yaroqsiz holati tiklanib, elektron nusxasi shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan holda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy maqola, jumladan Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 5 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya Kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 152 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy, amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi **“Qo'g'irchoq teatri san'atini o'rganilishining tarixiy-nazariy aspektlari”** deb nomlangan. Mazkur bobda qo'g'irchoq teatri san'atining paydo bo'lishi, tarixiy taraqqiyoti hamda uning nazariy asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ushbu bobning **“Qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lish tarixi”** deb nomlangan birinchi paragrafida qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lish tarixi qadimgi sivilizatsiyalar – Misr, Hindiston, Xitoy, Yunoniston va Rim madaniyati misolida tahlil qilinadi. Qo'g'irchoq teatrining dastlab marosimiy va diniy xarakterga ega bo'lgani, keyinchalik esa estetik va tomoshabop san'at turiga aylangani ilmiy asosda izohlanadi. Shuningdek, qo'g'irchoq teatri insoniyat tafakkuri va ijtimoiy hayotining ramziy ifodasi sifatida talqin etiladi.

Masalan, mashhur nemis dramaturgi Gyote qo'g'irchoq teatrini insoniyat hayotining ramziy modeli sifatida talqin etgan. Unga ko'ra, qo'g'irchoqlar orqali inson taqdiri, uning jamiyatdagi o'rni va axloqiy tanlovlari ifodalanadi. Rus teatrshunosi va mashhur qo'g'irchoq ustasi S.Obrazsov qo'g'irchoq teatrini “sehrli san'at” deb atagan. U qo'g'irchoqning sahna ifoda vositasi sifatidagi qudratini alohida ta'kidlab, qo'g'irchoqlar inson xarakterlarini ifodalashda aktyorlardan ko'ra ba'zan kuchliroq ta'sir ko'rsatishini qayd etgan. Jahon qo'g'irchoq teatri tarixi va bu soha bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlar Rossiya teatri tarixchisi va teatrshunosi B.Goldovskiy tomonidan o'rganiladi va “Qo'g'irchoqlar ensiklopediyasi” yaratiladi. Ensiklopediyada qayd etilishicha, ilk qo'g'irchoq tomoshalari haqida ma'lumotlar qadimgi Gretsiya, Rim va Misrga tegishli bo'lib, antik qo'g'irchoq teatri, zamonaviy Yevropa qo'g'irchoq san'atining beshigi hisoblangan. Eng yirik muzeylarda qadimgi Rim qo'g'irchoqlari mavjud bo'lib, ular o'zlariga bog'langan iplar yordamida harakatlana oladigan hunarmandlar va hayvonlar ko'rinishini tasvirlagan. Italiyalik olim, akademik I.Kastello XIX asr o'rtalarida yozgan dissertatsiyasida qadimgi Yunonistonda enagalar va onalar bolalarga turli xil tumorlar va tumorlar bilan birga harakatlanuvchi tana qismlari bo'lgan qo'g'irchoqlarni berish odati bo'lganligini ko'rsatadi.⁷ Qadimgi yunon qo'g'irchoqlari yog'och va terakotadan yasalgan kichik san'at asarlari hisoblangan. Platonning so'zlariga ko'ra⁸, bolalar qo'g'irchoqlarini nafaqat hunarmandlar, haykaltarosh rassomlar, balki olimlar ham yasashni yaxshi ko'rishgan. Platonning ta'kidlashicha, Arximedning o'zi, qo'g'irchoqlarni yaratgan, ularni murakkab va juda aqlli mexanizm bilan ta'minlagan.

Mazkur ensiklopediyaga G'arb qo'g'irchoq teatrining vujudga kelish tarixini o'rganish yuzasidan murojaat qilingan bo'lsa, Sharq xalqlarida qo'g'irchoq teatrining san'at sifatida shakllanishi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi,

⁷ Голдовский Б. Куклы: Энциклопедия. – Москва: Время, 2004. – С.28.

⁸ Голдовский Б. Куклы: Энциклопедия. – Москва: Время, 2004. – С.28.

san'atshunoslik fanlari doktori, professor M.Rahmonovning "O'zbek teatri (qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar)" deb nomlangan ilmiy risolasi orqali yoritib berildi.

"O'zbekistonda qo'g'irchoq teatri san'atining yuzaga kelishi va rivojlanish bosqichlari" deb nomlangan ikkinchi bo'limda uzoq asrlar davomida an'anaviy ko'rinishda faoliyat yuritib kelgan o'zbek an'anaviy qo'g'irchoq teatrining faoliyati Muhsin Qodirovning "O'zbek xalq tomosha san'ati", "Tomosha san'ati o'tmishidan lavhalar", "An'anaviy teatr dramaturgiyasi", "Temuriylar davri tomosha san'atlari", "O'zbek an'anaviy teatri", "Tomosha san'atlari o'tmishda va bugun", "Xalq qo'g'irchoq teatri" (qayta to'ldirilgan nashr) va S.Qodirova bilan hammualliflikdagi "Qo'g'irchoq teatri tarixi" kabi ilmiy asarlarida o'zbek an'anaviy teatri hamda qo'g'irchoq teatri tarixi va rivojlanish bosqichlari qo'g'irchoq turlari, qo'g'irchoqbozlar faoliyati haqidagi ma'lumotlari orqali keng yoritildi. Avvalo, xalq tomosha san'ati an'analari qo'g'irchoq teatrining shakllanishida muhim rol o'ynagani, o'zbek xalqining qadimiy tomosha san'ati turlaridan bo'lgan masxarabozlik, dorbozlik hamda xalq bayramlari jarayonida namoyish etiladigan tomoshalar qo'g'irchoq teatrining rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilgani ko'rsatib beriladi.

Qo'g'irchoq teatrining kelib chiqishi, uning marosimiy-mifologik ildizlari hamda tarixiy rivojlanish bosqichlari tizimli yondashuv asosida o'rganiladi. Qo'g'irchoq teatri dastlab diniy marosimlar va xalq o'yinlari bilan bog'liq holda shakllanib, keyinchalik professional sahna san'atiga aylangani ilmiy jihatdan asoslanadi.

"Qo'g'irchoqchilar elu-yurtga ozor bergan, g'am-kulfat keltirgan zamon zo'ravonlarini tanqid qilish hamda turmushdagi ayrim qoloqliklar, egriliklar ustidan kulish bilan xalq uchun zarur bo'lgan katta ijtimoiy va estetik vazifani bajarib kelganlar." - deb yozadi M.Qodirov. – Ammo ularning muddaosi qancha ulug' va sof, san'ati qancha mazmundor va yuksak bo'lmasin, jamiyatda qo'g'irchoqbozlar eng past tabaqa hisoblangan, tahqirlangan, xo'rlangan. Ulamolar qo'g'irchoq teatrini "shayton o'yin", qo'g'irchoqbozni olloh ishiga qo'l urgan shakkok va diyonatsiz, degan uydirma gaplarni tarqatib kelishgan. O'tmishda qo'g'irchoq teatriga olimlarimizning yetarli e'tibor bermaganliklarining boisi ham shunda. Ammo o'zbek qo'g'irchoq o'yini bilan astoydil va maxsus shug'ullangan kishi - bu rus havaskor etnografi Pyotr Aleksandrovich Komarovdir. Shu sababdan biz uni shu san'atning birinchi tadqiqotchisi deb atasak bo'ladi.⁹

1959-yilda L.A.Perepelitsinaning "O'zbek xalq qo'g'irchoq teatri" kitobi bosilib chiqdi. Buning yuqoridagi ishlardan farqi shundaki, unda qo'g'irchoqlar ta'rifi beriladi, shuning kabi, qo'g'irchoqbozlarning ijrochiligi hamda qo'g'irchoq tomoshalarining mohiyati va spesifik xususiyatlarini aniqlashga harakat qilinadi. M.Qodirov bu izlanishlardan qoniqmaydi. Chunki bu ilmiy izlanishlar faqatgina Toshkent qo'g'irchoqbozlarining faoliyatinigina yoritib bergan edi. Qo'g'irchoq o'yin ustalarining repertuari va ijrochilik mahorati tahlil qilinmagani sababli olim bu tadqiqotlarni davom ettiradi.

⁹ Qodirov M., Qodirova S. Qo'g'irchoq teatri tarixi. Toshkent: Talqin, 2006. – B.6.

Olimning ilmiy izlanishlari natijasida O'zbekistonning bir qator shaharlari va yirik qishloqlarida qo'g'irchoqbozlik truppalari bo'lganligi va bir darajada yashab kelayotganligi ma'lum bo'ldi, o'nlab qo'g'irchoqchilarning ijodi, repertuari aniqlandi, bir qator pyesalar yozildi, ayrim spektakllar suratga olindi va kinoga tushirildi. Muhsin Qodirov qo'g'irchoq teatri tarixini o'rganar ekan, "Qo'g'irchoq teatrining muhim tarixiy xususiyatlaridan biri shuki, u Osiyo va Yevropada to XX asrgacha asosab an'anaviy shakllarda yashab kelgan..." – deya e'tirof etadi.

XIX va XX asrlarga kelib o'zbek an'anaviy teatrining uch turi bir biriga bog'liq holda shakllanadi. Bular masxarabozlik san'ati, qiziqchilik san'ati va qo'g'irchoqbozlik san'ati. Lekin an'anaviy tomoshalar, qo'g'irchoq o'yini tomoshalari har qanday davrda shakllanishda davom etdi. Turli siyosiy vaziyatlarda xalq dardi va tashvishi bilan birga hamdard bo'lgan qo'g'irchoqlar, xalq uchun tomosha yaratdi. Yuqori tabaqa a'zolari, saroy beklari uchun xizmat qilmay, kerak bo'lsa ularni ham o'z sahnasiga qo'rqmasdan tortib chiqdi. Jamiyatdagi illatlar haqida aynan mana shu qo'g'irchoq tomoshalari sahnasida baralla yangrab gapirildi. Qo'g'irchoqbozlar o'z tomoshalarida achchiq hazil, kesatiq gaplarni o'z o'rnida ustalik bilan ishlata bilgan, shuning uchun ham "o'yinlari" doimo jonli va ta'sirli bo'lgan. "Qo'g'irchoq tomosha – O'zbekistonda eng qadimiy teatr turlaridandir. Mashhur qo'g'irchoq qahramoni Polvon Kachal Shahar va qishloqlarda, sayillarda minglarcha tomoshabinlarni to'plar edi. Uning zaharli tili ochko'z sudxo'rga, axmoq jandarmaga, qizg'onchiq mullaga, johil boyga ko'pgina noqulayliklar keltirardi. Ko'pincha ayrim qo'g'irchoqlar tarixiy shaxsga o'xshatib yasalardi. Masalan, Qo'qon xoni Xudoyorxonga o'xshagan qo'g'irchoq ham bo'lgan..." – deya yozadi D.Glinberg o'zining 1959-yili "O'zbekiston" gazetasida chop etilgan "Tirik qo'g'irchoqlar" nomli maqolasida.

Ammo zamon rivojlanishi bilan teatr tomoshalari uchun alohida maskanlar yaratila boshlandi. Tomoshalar endi omma oldida, bozorlarda yoki ko'chalarda emas, aynan teatr binosida namoyish etiladigan bo'ldi. Natijada yangi yo'nalishda, yangicha qarashda vujudga kelgan, "qo'g'irchoq o'yini"dan "qo'g'irchoq teatri"ga aylangan professional qo'g'irchoq teatri vujudga keldi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"XX asr o'zbek qo'g'irchoq teatri"** deb atalib, mazkur bo'limda yangi va zamonaviy teatr binosida o'z faoliyatini boshlagan professional qo'g'irchoq teatrining tashkil etilishi, unda faoliyat yuritgan ijodiy jamoa va sahnalashtirilgan asarlar haqida so'z yuritiladi. Ikkinchi bobning birinchi qismi **"XX asrning birinchi yarmida qo'g'irchoq teatrining shakllanishi"** deb nomlangan bo'lib, aslida 1939-yil rasmiy sana hisoblanib, amalda esa 1928-yildan o'z faoliyatini boshlagan professional qo'g'irchoq teatrining ilk ijodiy faoliyati o'rganiladi.

Truppaning birinchi aktyorlari xalq qo'g'irchoqbozlaridan P.Doniyorov va yosh san'atchi N.Eshmuhammedov, H.Abdullayev, M.Soliyevlar va O.Xolimtoyevlar bo'lgan. 1928-yilda Rus yosh tomoshabinlar teatrida Semyon Eten boshchiligidagi bir guruh aktyorlar Bicher Stouning "Tom tog'aning kulbasi" kitobi asosida bolajonlar uchun spektakl sahnalashtiradilar. Bolajonlar uchun sahnalashtirilgan rus tilidagi spektakl yosh tomoshabinlarga manzur bo'ladi.

XX asrning birinchi yarmida O'zbekiston hududida siyosiy tuzum tubdan o'zgardi. Sovet hokimiyatining o'rnatilishi madaniy hayotning barcha sohalariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda san'at vositasida yangi mafkura – kommunistik g'oyalar targ'ib qilindi. Teatr, adabiyot, musiqa va tasviriy san'at singari qo'g'irchoq teatriga ham ideologik vazifalar yuklatildi. 1930-yillarda tashkil etilgan dastlabki professional qo'g'irchoq truppalarining repertuarida xalq ertaklari asosidagi asarlar bilan bir qatorda yangi ijtimoiy mazmundagi spektakllar ham paydo bo'ldi. Masalan, bolalar ongini shakllantirish uchun mehnatsevarlik, ilm olish, jamoatchilik manfaatini qadrlash kabi mavzular ko'tarildi. "Petrushka-shum bola", "Vanyaning bolalar bog'chasi", "Yolg'onchi bola" kabilar shular jumlasidandir. Bu pyesalarning muallifi, aniq matni bizgacha yetib kelmagan. Biroq ularning mazmunlaridan ma'lum darajada xabardormiz. Bu saxna asarlari o'ta sodda, ko'proq tashviqiy maqsadlarga yo'naltirilgan spektakllardan tashkil topgan edi. Keyinchalik teatr tomoshabinlar orasida ancha mashxur bo'lgan "Sembo", "Maks va Moris", va "Petrushka-xorijiy" kabi bir muncha murakkab tomoshalarini ham saxnalashtirishga muvaffaq bo'lishgan.

O'zbek qo'g'irchoq teatri 1934-yilda og'ir sharoitda ishladi. Original asarlarning yetishmasligi, spektakl jihozlarining qashshoqligi, havaskorlar yasagan qo'g'irchoqlarning beo'xshov va hunukligi, aktyorlar mahoratining pastligi, maxsus binoning yo'qligi ijodiy jamoa faoliyatiga halal berdi. Ammo shunga qaramay 1935-yil o'rtalariga kelib, O'zbek qo'g'irchoq teatri faoliyatida bir muncha ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Bu davrda qo'g'irchoq teatrining asosiy vazifasi – bolalar va yoshlarni yangi ijtimoiy g'oyalar ruhida tarbiyalash, ularni ilm-ma'rifatga, halollikka, mehnatsevarlikka da'vat etish edi. Natijada, teatr 1935-yil o'rtalariga kelib, "A'lochi", "Ekishga tayyor bo'l", "Badan tarbiya", "Negr bolasi Tom" va "Kechirasiz, o'rtoq Dovruq" kabi spektakllarni namoyish etdi.

XX asrning birinchi yarmida butun dunyoda mashhur bo'lgan Sergey Obrazsov teatri O'zbekistondagi qo'g'irchoq san'atiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. 1930–1940-yillarda S.Obrazsov va uning shogirdlari tomonidan yaratilgan spektakllar namunasi o'zbek rejissyorlari va qo'g'irchoqbozlari uchun ijodiy maktab vazifasini bajardi. O'zbekistonlik yosh san'atkorlar Moskvada malaka oshirish imkoniyatiga ega bo'lib, u yerda qo'g'irchoq teatrining texnik imkoniyatlari, dramaturgiyasi va sahnalashtirish usullarini o'rgandilar. Natijada o'zbek qo'g'irchoq teatrida ipli qo'g'irchoqlar, soyali teatr va zamonaviy sahna texnikasi qo'llanila boshladi.

Shunday qilib, o'n yildan ortiqroq davr (1928-1939) mobaynida yangi ko'rinishdagi professional teatrning shakllanish jarayonining avvali o'z poyoniga yetdi. Tabiiyki, ushbu jarayon rus, o'zbek qo'g'irchoq truppalarining spektakllarini badiiy saviyasini yuksaltirish, an'anaviy qo'g'irchoq san'ati, yangi uslubdagi qo'g'irchoq teatrini yanada ham boyitdi, aktyorlarning qo'g'irchoq o'ynatish mahoratini professional darajaga ko'tardi. Va nihoyat, bu davrga kelib, aktyorlar, rassomlar, rejissyorlar, kam bo'lsada, dramaturglar va shu sohani yetaklab ketadigan mutaxassislar, ijodkorlar yetarli miqdorda yetishib chiqqan edi. Demak, Toshkentda respublika miqyosida yirik professional teatrini yuzaga keltirishga mustaxkam poydevor qurilgandi. Va shu munosabat bilan 1939-yil 19-oktabr kuni davlat qarori bilan o'zbek va rus truppalari asosida yagona – Respublika qo'g'irchoq teatri tashkil etildi.

Mazkur bo‘limda 1928-yildan 1960-yilgacha bo‘lgan ijodiy faoliyat bilan birga teatrning tashkil etilishi va spektakllar yaratilishida hizmatlari ketgan fidoyi ijodkorlar faoliyati ham keng yoritildi. Jumladan, P.Doniyorov, T.Mahramov, rassom-skulptor Y.Podgurskayalarning ilmiy va ijodiy faoliyati tahlil qilindi.

